


2018 yil yanvar – iyun oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2018 yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida 1553,8 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 109,0 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 18,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati 88,7 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 45,7 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun moʻljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yoʻllarini taʼmirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obʼyektlari (maktablar, maktabgacha taʼlim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida oʻz faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1537,4 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 98,9 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning oʻsish surʻatiga nisbatan 5,8 bandga kamayib, 112,5 foizni tashkil qildi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 16,4 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 1,1 foizini tashkil qildi.



2018 yilning yanvar – iyun oyida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1298,5 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 116,6 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 1,4 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 6,5 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish obʻektlarining ulushi 158,9 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 79,0 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 12,8 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 111,3 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 80,1 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 155,5 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 2,2 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 122,2 foizni tashkil qildi.